QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI BERUNIY RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI BERUNIY TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2025-yil 22-yanvar | 8-13-182-Q/25 | Beruniy tuman hokimligi

Tuman hududidagi ayrim ko‘chalarga yo‘l belgilarini o‘rnatish to‘g‘risida

Beruniy tumani Ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 8-iyul kungi 11/2994-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-iyuldagi O‘RQ-900-sonli “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasiga, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6,21[1]-moddalariga asoslanib

QAROR QILAMAN:

1. Tuman Ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 9-iyul kungi 11/2994-sonli xatima’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududidagi “Shayx Abbos Valiy” ko‘chasining U.Jumaniyazov ko‘chasi bilan kesishgan qismidan “Shayx Abbos Valiy” ko‘chasining Farog‘on ko‘chasi bilan kesishgan qismigacha, “Shayx Abbos Valiy” ko‘chasining Farog‘on ko‘chasi bilan kesishgan qismidan “Shayx Abbos Valiy” ko‘chasining Navbahor ko‘chasi bilan kesishgan qismigacha, “Shayx Abbos Valiy” ko‘chasining Navbahor ko‘chasi bilan kesishgan qismidan - “Shayx Abbos Valiy” ko‘chasining Kat ko‘chasi bilan kesishgan qismigacha yo‘lning o‘ng tarafi (tuman markazidan Avtovakzal tarafga harakatlanganda yo‘lning o‘ng tomoni)ga doimiy ravishda 3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan” yo‘l belgisi o‘rnatilsin.

Shuningdek;

- “Xayrli bobo” masjidi oldidagi Bakovul ko‘chasining Bakovul vaSahar ko‘chalari oralig‘iga;

- “Darvesh Eshon bobo” masjidi oldidagi ichki yo‘lning masjid hududi boshlangan va tugagan joylariga;

- “Sulton Uvays bobo” masjidi oldidagi yo‘lning masjid hududi boshlangan va tugagan joylariga;

- “Badr ota” masjidi oldidagi 4K 25 A avtomobil yo‘lining 4,5-4,8 km oralig‘iga har haftaning “juma” kunlari jamoat va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash maqsadida 3.1 “Kirish ta’qiqlangan” yo‘l belgisi bilan birgalikda 7.5.5 — 7.5.7. “ haftaning “juma” kunlari soat 12:00 dan 14:30 gacha” qo‘shimcha axborot belgisi o‘rnatilsin.

3. Tuman yo‘llardan foydalanish davlat muassasasi (U.Kalandarov) tuman Ichki ishlar bo‘limi (M.Muratov) o‘z vakolatlari doirasida tegishli tashkilotlar bilan birgalikda belgilangan tartibda yo‘l belgilarini o‘natish, jamoat va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qaror tuman Xalq minbari gazetasida va tuman hokimligi rasmiy veb saytida e’lon qilinsin.

5.Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Beruniy tumani hokimi **I.Xidirov**